

IDENTIFICATION AND DEVELOPMENT OF INNATE ABILITIES AND SKILLS OF STUDENTS, INDIVIDUAL APPROACH TO EDUCATION

Khakimova Sarvinoz Sharifjan's daughter

FarDU student of pedagogy and psychology

Email address: sarvinozhakimova122@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunning eng dolzarb masalaridan biri, ya'ni o'quvchi qobiliyatini aniqlash chora tadbirlari izlash va ta'limga individual yondashish ta'limning sifatiga ta'sir ko'rsatkichlari ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: O'quvchi, o'qituvchi, qobiliyat, erkinlik, muhit, individual yondashuv, ta'lim, o'qituvchi qobiliyati va iste'dod.

ANNOTATION

In this article, one of the most urgent issues of today, that is, the search for measures to determine the student's ability and the individual approach to education, the indicators of the impact on the quality of education were shown.

Key words: Student, teacher, ability, freedom, environment, individual approach, education, teacher ability and talent.

АННОТАЦИЯ

В данной статье показан один из самых актуальных вопросов современности, то есть поиск мер по определению способностей учащегося и индивидуального подхода к обучению, показателей влияния на качество образования.

Ключевые слова: Ученик, учитель, способность, свобода, среда, индивидуальный подход, воспитание, способность и талант учителя.



Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Umuman, yoshlarning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy, ilg‘or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O‘zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma‘naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e‘tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bois har qanday ta‘lim muassasida bolani ko‘proq nima qiziqtiradi, uni qaysi sohaga qiziqishi yuqori yoki u qanday qobiliyatga egaligini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Toki hayot davom etar ekan, ta‘lim ham, tarbiya ham zamon o‘rtaga qo‘yayotgan yangi-yangi talablarga ko‘ra muttasil ravishda o‘zgarib -yangilanib boraveradi. Faqat biz bu sohadagi dastlabki qadamlarni to‘g‘ri qo‘ya olsak, poydevorni mustahkam qilib barpo etsak kifoya.

Ta‘limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘linadi Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Bu hayotdahr qanday millatni,jamiyatni o‘zgartirishga qodir insonlar albatta betakror qobiliyat va iste‘dod egalaridir. Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o‘zi bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Malaka, ko‘nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi. Qobiliyat insonni o‘zi tomon yo‘naltiradi. Qobiliyatlar asosan tug‘ma bo‘ladi va bolani yoshligidan namoyon bo‘ladi. Ota-onalarning ichida bolaning qobiliyatini rad etib, boshqa yo‘nalish tomon o‘zgarishlarga yetaklaydiganlari ham yo‘q emas. Afsuski bu to‘g‘ri yo‘l emas. Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko‘nikma va malakalari ko‘p qirrali va mukammallashgan bo‘ladi. Shuning bilan birga ko‘nikma va malakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to‘ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko‘nikmalarni umumlashmasi moxirlik deb ataladi. Moxirlik- bu endi



qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.

Har qanday qobiliyat ham murakkabdir. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa usullar orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda rus psixologi Vladimir Odoeykiyning fikricha: "Har bir bola bir oz daho, har bir daho bir oz boladir" kabi jumllarini yodga oladigan bo'lsak, haqiqatdan ham qobiliyatli bola o'zi qiziqayotgan mashg'ulotni qilayotganda borliqni unutadi. Bunday bolalarga zamin yaratib berilsa har qanday jamiyatda ular o'z o'rnini topadi va yurti kelajagiga munosib xissa qo'shadi. Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlarning juda ko'p turlari mavjud. Hozirgi zamon psixologiyasida inson qobiliyatlarining tasniflash turlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ichidagi umumiy tasniflashga ko'ra qobiliyatlar ikki guruhga: umumiy va maxsus qobiliyatlarga bo'ladi. Bu guruhlarning har biri oddiy va murakkab, guruh ichida esa alohida turlarga bo'linadi.

- Umumiy boshlang'ich qobiliyatlar – bu qobiliyatlar turli darajadagi ifodalanishda bo'lsada, barcha odamlarga xos. Ularga psixik aks ettirishning asosiy shakllari: sezish, idrok qilish, esda olib qolish, qayg'urish, fikrlash, xayol surish, qaror qabul qilish va amalga oshirish kiradi. Bu qobiliyatlar asosan insonning biror soha yoki mashg'ulotni amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

-Maxsus boshlang'ich qobiliyatlar – bu qobiliyatlar barcha odamlarga xos bo'lmay, ular psixik jarayonlarning qandaydir sifat tomonlarining ma'lum ifodalanishini taqazo etadi. Qobiliyatli insonlarning individual farqlari qiziqishlarning yo'nalganligi bilan belgilanadi. Xuddi shunday, ayrimlar matematikaga, boshqalar tarixga, uchinchilar esa jamoatchilik ishiga qiziqadilar. Pedagogik qobiliyatlar deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional-irodaviy



tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri-biri bilan ozaro bogʻlangan bolib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta'rif beriladi: qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, konikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda nomoyon boladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Pedagogik psixologiyada oqituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan ornini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borildi.

Psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qoyiladi, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

- tashkilotchilik qobiliyati
- didaktik qobiliyat
- perseptiv qobiliyat
- akademik qobiliyat
- nutqiy qobiliyat

Tashkilotchilik qobiliyati-birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini tez fursatda uyushtirishni nazarda tutadi.

Didaktik qobiliyatlar-bu bolalarga o'quv materialini aniq va ravshan tushuntirib oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikirlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlaridir. Bunday qobiliyatli o'qituvchi darsiga o'quvchilar berilgan topshiriqni oson egallab oladilar va bajaradilar.

Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlarga xos qobiliyatlardir. Qobiliyatli o'qituvchi o'z fanini faqat kurs hajmidagi emas balki atroflicha keng, chuqur bilib, bu soxada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga kata qiziqish bilan qaraydi hamda dars davomida bir oz bo'lsada



tadqiqot ishlarini olib boradi. O'quv jarayonida quyida berilgan fanlar doirasidan qobiliyatli bolalarni saralab olish bunday qobiliyat egalariga anchagina yengildir.

Nutq qobiliyati-kishining o'z tuyg'u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbidagi muhim qobiliyatlardandir. Chunki o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot asosan ikkinchi signal tizimi-nutq orqali beriladi. Birinchi navbatda o'qituvchining nutqi ravon bo'lishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Perseptiv qobiliyatlar- bola shaxsining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, bolaning vaqtinchalik psixik holatlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir. Bunday qobiliyatli insonning kuzatuvchanligi yuqori shakllangan bo'ladi.

Bugungi kunda ham hattoki maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni intizomli qilib o'tirish uchun emas, mayli qancha be'tartibliklar qilsin qo'yib bering, u o'zini namoyon qila olsin va o'z qiziqishi ustida yoshligidan shug'ullansin kabi harakatlar strategiyasi ustuvorlik qilmoqda. Shunday yoshlarga millatning dong'ini olamga yoya oladi. Shu o'rinda rus psixologi va faylasufi S.L. Rubinshteyn, - "erkinlikni bunga zid bo'lgan sharoitda axloqiy pozitsiyalarga erishi uchun emas shaxs o'zini namoyon qilishi uchun yarating, uning atrofidagi dunyoda yaxshilik va yomonlik nisbatlarini o'zgartirish qobiliyatiga yo'naltirilgan. Bunday erkinlikka, Rubinshteynning fikricha, spekulativ vositalar yordamida emas, psixologik o'z-o'zini sozlash orqali ham emas, balki sub'ekt tomonidan uyushtirilgan faoliyat orqali erishiladi. Haqiqatdan ham bolaga yoshligidan erkinlik berish maqsadga har tomonlama erishish uchun foydalidir.

Jamiyatimizning asosiy maqsadi barcha fuqarolarning to'la rivojlantirish hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish faqat shaxs ijodiy salohiyatini aniqlash, shuningdek, rivojlanishning eng yuqori darajasi, uning shaxsini shakllantirish orqali erishish mumkin. Shuningdek, ta'limga individual yondashuv, shaxsning ijobiy belgi xususiyatlarini shakllantirish yoki uning xatti-kamchiliklarni bartaraf etish kabilarni mustahkamlashga qaratilgan. Insonda jamoa bo'lib biror ishga yondashishdan ko'ra individual yondashishi ko'proq harakat va mas'uliyatga chorlaydi. U shu ishni yakunlash uchun bor kuch g'ayratini ishga soladi. Jamoa bo'lib harakat esa insonlarda birdamlikni, mehr-oqibatni kuchaytiradi-yu, bir oz mas'uliyatsizlikka olib



kelishi va inson bir oz sustroq harakat qilishi mumkin. Shu bois ta'limga ham individual yondashilsa yuqori natijalarga erishish tezroq va samaraliroq bo'ladi degan umiddaman. Yetarlicha pedagogik mahoratga ega bo'lish va o'z ustida ko'proq ishlash orqali ta'limning sifatini kelajakda yanada kuchaytirish, yurtning taqdirini ham yuqori pog'onalarga chiqishiga turtki bo'ladi. Yurtimizda oliy pedagogik ta'limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida sifatli ta'limga erishishdir. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi mana shunday turli yondashuvlarning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Individual ya'ni yakka- yolg'iz, mahsus faoliyat olib borishdir. Yakka tartibda shug'ullanish xususiyati markazida ta'lim oluvchi turadi. Bu hol ta'lim oluvchining bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirish imkoniyatlarini beradi. Individual yondashish – bu pedagogik prinsipga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning tahsil oluvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida tahsil oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi. Yuqoridagi kabi ta'limiy texnologiyalarni qo'llagan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarni nafaqat mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni, balki darsda faol ishtirok etish, diqqatni jamlash, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish, shuningdek o'zgaralar fikrini hurmat qilish va tinglash kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Individual yondashuv o'qituvchidan katta sabr toqatni talab qiladi. O'quvchilarda esa bunday yondashuv dastur materialini o'zlashtirish uchun faol mehnatga jalb qilishga xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.R. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T: O'zbekiston, 1999.
2. Jabborov A.O, Alimqulova M.B. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari.
3. Ziyadullayeva D.X. Tarbiyachi faoliyatida kasbiy mahorat va ijodkorlik sifatlari / ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES JOURNAL.
4. Kreativ pedagogika asoslari. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.
5. Mamajonova K.A. O'quvchilarni kasbiy shakllantirishning pedagogik psixologik masalalari.
6. Ijtimoiy pedagogika uslubiy qo'llanma

